

DEFFERENTSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJODKORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH

Tirkasheva Guzal Baxromovnaning

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

"Ta'lim muassasalari boshqaruvi" fakul'teti II - bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darslarida metodlardan samarali foydalanishva, ona tili fanini o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, o'qitish metodikasi, fan, ta'lim tizimi, metodologiya, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar.*

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» pedagoglar, olimlar va ta'lim-tarbiya tizimi bilan bog'liq barcha mutaxassislar oldiga qo'ygan ulkan va ma'suliyatli vazifalardan biri ta'lim jarayonini ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Shu maqsadda o'quvchilarning tillarni o'zlashtirishiga alohida e'tibor berilishi bejiz emas, albatta. Zero, bugungi kunda zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun har bir yosh bir necha tilni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, o'zbek (davlat) tilidan tashqari kamida ikki emas, to'rtta jahon tillarini yaxshi bilishi talab etilmoqda. Bunga erishish uchun ta'lim mazmunini yangilash, amaldagi dastur va darsliklarni takomillashtirish va eng muhimi - barcha tarkibiy qismlari mohiyat va metodologik jihatdan mushtarak bo'lgan yangi o'quv majmualari yaratishga yo'naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi darkor. So'nggi yillarda jahon ta'lim tizimida tilni zamon talablari asosida mustaqil o'zlashtirish usullarini tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan bizning respublikamizda ham har bir til va adabiyot fanini o'qituvchi mutaxassis ustoz o'z darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga qaratmoqda.

Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lishlari darkor:

1. Darsni 10-12 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.
2. O'qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.
3. Til o'rgatishda, shuningdek, fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.
4. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o'rganishga, yangi nutqiy ko'nikmalar hosil qilishga e'tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tilini o'rgatishda to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirish va so'z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar - video va audiomagnitafonlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tilini o'rganishda mustaqil ishlash (matn ustida) ta'lim sifatini ta'minlaydigan eng muhim shartlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'zlari o'rganayotgan tilda fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qila olish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Mustaqil ishlashda

belgilangan mavzu asosida amaliy ish (mavzu bo'yicha mashqlar) bajarish hamda muayyan mavzu asosida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy fanlar uchun amaliyot muhim rol o'ynaydi. Ona tili fani ham amaliy fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliy xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiy darajada, ya'ni puxta va asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi:

a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash;

b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnoma orqali tekshirish;

Ayniqsa, umumta'lim maktablarining ona tili darslarida til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyillarini o'qitishni yangicha talqinda tashkil etish lozim. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rgatish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rgatish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarinikg to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsipi. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o'rtasilagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan xolda o'rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan xoldagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va x.q. So'zni morfemik tomondan taxlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam

beradi. Tilning xamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish prinsipi. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini faxmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yo'dda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal kilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabietlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari anik ifodalangan boshka matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og'zaki nutkni yoema nutkdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil xam kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Diktant - orfografik va punktuatsion xatolarni nazorat qilishning asosiy shakllaridan biridir. Diktantlar uchun bog'lovchi matnlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir, ular zamonaviy adabiy til me'yorlariga javob berishi kerak, mazmuniga ko'ra butun sinf o'quvchilariga oson bo'lishi kerak. Diktantning hajmi quyidagicha belgilanadi: 5-sinflar uchun -90-100 so'z, 6-sinflar uchun -100-110, 7-sinflar uchun -110-120, 8-sinflar uchun -120-150, 9-sinflar uchun -150-170 so'z. (Hisoblashda ham mustaqil, ham yordamchi so'zlar inobatga olinadi). Nazorat lug'aviy diktant tekshirilmaydigan va qiyin tekshiriladigan orfogrammali so'zlarning o'zlashmasini nazoratga mo'ljallangan yozma ish turi hisoblanadi. U quyidagi miqdorda so'zlardan iborat bo'ladi: 5-sinflar uchun -15-20, 6-sinflar uchun -20-25 so'z, 7-sinf uchun -25-30, 8-sinf uchun-30-35, 9-sinf uchun-35-40 so'z. Ma'lum mavzu bo'yicha o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat uchun diktant asosiy orfogrammalarini va punktogrammalarini o'z ichiga olishi kerak, shuningdek oldin o'zlashtirilgan ko'nikmalarining mustahkamligini topishga yordam beradi. Chorak va yil yakunida o'tkaziladigan yakuniy diktantlar barcha o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning tayyorligini tekshiradi. Nazorat diktantlari uchun orfogrammalar va punktogrammalar 2-3 holatda qo'llanilgan matnlar tanlanishi kerak. Avval o'tilgan orfogrammalar va punktogrammalardan asosiylari olinadi: ular 1-3 holatlar bilan ko'rsatilishi kerak. Tekshiriladigan orfogrammalar 5-sinfda 12ta turli orfogrammalaridan va 2-3 ta punktogrammadan oshmasligi kerak, 6-sinfda 16ta turli orfogrammalaridan va 3-4 ta punktogrammalardan oshmasligi kerak, 7-sinfda 20 turli orfogrammalaridan va 4 -5 ta punktogrammalardan, 8-sinfda 24ta orfogrammalaridan va 10ta punktogrammalardan, 9-sinfda 24ta turli orfogrammalaridan va 15ta punktogrammalardan oshmasligi kerak. Nazorat diktantlari matniga yetarli darajada mustahkamlangan orfogrammalar kiritilishi mumkin. Ma'lumki, esse erkin fikrning - mustaqil tafakkurlarning mahsuli. U ijod. Ona tili va adabiyot

daralarida insho yozish ham ijod. Insholarning bu ikki turi o'rtasidagi tafovut unchalik katta emas. Bugun ona tili va adabiyoti darslari oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan -muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdek yuksak vazifa qo'yilgan. Bu vazifani bajarishda insholarning o'rni beqiyos. Albatta, insholar ta'lim tizimida o'rganib qolingan an'anaviy tartibda emas, aynan ijodning natijasi tarzida yozilishi kerak. Adabiyot darslarida tanlangan insho mavzulari o'qituvchi uchun eski bo'lishi mumkin, ammo o'quvchilar uchun yangi ekanligini e'tibordan qochirmaslik lozim. O'quvchilar insho mavzularini o'ylantiradigan, qiynaydigan, sevintiradidan tuyg'ularga hamohang bo'lishini xohlashadi. Shuning uchun «Mening sevimli do'stim», «Do'stimning qaysi fazilatlarini yoqtiraman?», «Menga yoqqan qahramon»kabi mavzularga ham alohida e'tibor berishlari zarur. Bunday insholar orqali o'qituvchi o'quvchilardagi fikr mustaqilligining o'sishini nazorat qilib boradi. Uy insholari ham bu sohada o'qituvchiga qo'l keladi.

Ularga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'z fikrini reja asosida, mavzudan chiqmay, izchil bayon etish;
- aytilgan fikrlar, chiqarilgan xulosalarni asoslash va dalillar bilan isbotlash;
- badiiy asar yoki darslik mualliflarinikidan farqli ravishda o'z xulosasini chiqarish va badiiy umumlashmalar qilish;
- o'z qarashlarini to'g'ri va savodli bayon qila olish.

O'quvchilar inshosini baholashda adolatli bo'lish ham samaradorlikning oshishiga yordam beradi. Insholarni baholashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Insho mavzusining yoritilishi (mazmun mavzuga mosmi, yetarli yoritilganmi?)
Mazmun haqiqatga mos keladimi?
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (Reja to'g'ri tuzilganmi? Materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi? Mazmunda takror yo'qmi? Zarur o'rinlar tushib qolmaganmi? Izchillik buzilmaganmi?). Asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?
3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi? Uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi? Insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi? Badiylik elementlari bormi?)
4. Insho hajmi (lakonizm yoki ko'pso'zlilik).
5. So'zlardan to'g'ri foydalanish, sinonim, antonim, frazeologizmlardan foydalanish qay darajada?
6. Sintaksis (Gaplarning hajmi, sintaktik konstruksiyalarning bir xil yoki har xilligi, murakkab konstruktsiyalar bormi?)
7. Imloviy va punktuatsion savodxonlik, xatolar xarakteri (qo'pol va juz'iy xatolar)
8. Husnixat, tashqi tomondan shakllantirish (hoshiyaga, xat boshidan yozishga, sarlavhani to'g'ri joylashtirishga rioya qilish).

O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish tizimi muhim didaktik shartlardan biri hisoblanadi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish o'qituvchiga qo'llanilayotgan ta'lim metodlari, vositalari va uslublarining samaradorligini baholashga, metodikaga tuzatishlar kiritishga imkon beradi. O'quvchilar uchun nazorat muhimdir, chunki u shakllanuvchi bilimlarning to'g'ri ekanligini mustahkamlashga xizmat qiladi, sifatli ishlashga boshlaydi, o'z o'zini nazorat qilishni

rivojlantiradi. Bilimlarni nazorat qilish va baholash bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, qiyinchilikni yengishga va kundalik ishlash tizimiga o'rgatadi. O'quvchilarning bilimlari va ko'nikmalarini nazoratda frontal va individual nazoratni qo'llash yaxshi samara beradi. Frontal nazorat, ya'ni o'quvchilarni o'tirgan joyida savol-javob qilish qilish, asosan yangi materialni o'rganishga tayyorlanish bosqichida, bilimlarni nazoratda qo'llaniladi. Frontal nazorat turli masalalar bo'yicha ko'p o'quvchilarning bilimlarini ko'rsatishga, qisqa vaqt ichida butun sinf bilan topshiriqni bajarish dalillarini o'rnatishga imkon beradi. Biroq u bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning chuqurligi va to'laligini aniqlash imkonini bermaydi. Frontal nazoratni o'tkazishda oldindan savollarni tuzish va nazorat jarayonida savollarga javob berishi kerak bo'lgan o'quvchilarni belgilashi kerak. O'quvchilar savodxonligini oshirish, ularning lug'at boyligini hamda mustaqil fikrlash doirasini kengaytirish, ularning voqea-hodisalarga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirish va izhor etishga o'rgatish yozma ishlar, ayniqsa, diktant, bayon va inshoning ahamiyati katta.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bo'lajak mutaxassislarimizning yozma va og'zaki savodxonligi a'lo darajada bo'lishi kunning bosh masalasi darajasiga ko'tarilgan ekan, nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki butun o'quv faoliyat davomida bunga erishishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulova, R. B. (2020). Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatini oshirishda pedagogik texnologiyalar.[1]
2. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari.[2]
3. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimai holini o'rgatish xususida.[3]
4. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.[4]